

**ABDULLA QAHHORING “DAXSHAT” HIKOYASIDA AYOL
OBRAZINING TAHLILI VA TADQIQI**

Muhammadqodir Mabsurov Maqsudovich

*Texnologiya, menejment va kommunikatsiya institutining (TMCI)
talabasi Toshkent, O'zbekiston*

Annotatsiya: “Daxshat” hikoyasida o’sha zamonlardagi o’zbek ayollari, ayniqsa, ayollarga qanchalik qiyin, og’ir bo’lgani o’z ifodasini topgan. Ayollarning qadr-qimmatini yaxshilash, ularga bo’lgan e’tiborni mehr-muhabbatni kuchaytirish taklif qilindi. Demak, o’sha vaqtlarda ayollar erkin so’zlay olmas, fikrlarini erkin bayon eta olmas edi. Erkaklar esa go’riston orqali o’zlarini mard qilib ko’rsatishga urinishgani haqida xulosa berilgan.

Kalit so’zlar: hikoya, daxshat, qo’rquv, zamon, xotin-qizlar, ayol.

Buyuk yozuvchilarimizdan biri Abdulla Qahhor juda ham iste’dodli , asarlarga shunday jon bag’ishlar ediki - o’qigan inson Abdulla Qahhor yozgan asari ichiga tushub qolganday u yerdagi g’am g’ussa , sevgi , iztirob , qiyinchilik , donolik va qiyinchiliklarni his qilganday bo’lardi . Bunga isbot tariqasida biz “ Dahshat “ nomli asarini namuna tariqasida olishimiz mumkin . Abdulla Qahhor “Dahshat “ hikoyasini 1960 yilda yozib , ommaga taqdim etdi . “Daxshat” hikoyasida o’sha zamonlardagi o’zbek oilalari, ayniqsa, ayollarga qanchalik qiyin, og’ir bo’lgani o’z ifodasini topgan.Hikoya taxminan 1920 va 1930 yillar oralig’ida sodir bo’lgan . O’sha davrda teng huquqlik yo’q , boylar va shoylarning hayoti bamisoli ertak bo’lsa , oddiy xalqning hayoti juda qiyinchilikda o’tgan . “ Dahshat “ asarida ham shu muammolar yuqori ko’tarilib juda go’zal tarzda jonlantirilgan.

Hikoya Olimbek dodhonning sakkiz hotini eng katta kundosh Nodirmohbegimning uyida bo’lib o’tadi , u yerda asarimizning bosh qahramoni , eng kichik kundosh , o’z ota-onasinig qarzlari sabab dodhonga majburlab uzatilgan va kelganiga endigina 5 oy bo’lgan ganjiravonlik Unsinoy o’tirardi . Kundoshlar orasida har xil mish-mishlar haqida gap ketadi , gapning eng qiziqarli nuqtasiga kelganda, har kecha taroveh namozidan kiyin



halqaga qoladigan, ammo, bugun unda ishtirok etmagan dodxoh kirib keladi. Abdulla Qahhor dodxohni shunday tasvirlaydi - “ O'zi payg'ambar yoshidan o'tgan, soqoliga oq oralagan , qorin qo'ygan , ziqna va hasis boy bo'lib , u o'z manfaati yo'lida hech narsadan qaytmaydigan inson edi”. Ko'cha qorong'u. Oy shu'lasi xira-shira ko'rinar, tashqarida qattiq shamol chaqib , momaqaldiroq gumburlar edi . Dodxoh o'ziga taskin berish maqsadida gap boshlaydi, biroq hech qaysi mahramidan javob ololmagandan kiyin to'xtaydi. Shunda eng katta kundosh Nodirmohbegim o'z hikoyasini boshlaydi, u aytishicha bir qishloqning bolalari choyxonada bahs boylashibdi, bahsga ko'ra kim go'ristonga borib bir qabrga pichoq sanchsa o'sha insonga mukofot sifatida bir bosh qo'y berilar ekan . Tabiiyki bunga bir yigit rozi bo'lib go'ristonga yo'l olibdi, lekin qaytib orqasiga qaytmabdi . Ertasi kuni uning ortidan borgan insonlar uni qabr oldida o'lik holda topishibdi. Bu hikoyadan keyin barcha kundoshlar va dodxohning qalbiga qo'rquv oralabdi. Shu payt asarimiz bosh qahramoni Unsinoy xo'rsinib debdi: “ - eh , bir qo'yni deb o'lim bilan olishibdi-da agar arziydigan narsa bo'lganida borsa bo'lar edi” . Bu gapni eshitgan dodxoh kinoya bilan - “bitta qo'yni mensimayabsanmi , agar sen borsang men senga o'nta qo'y beraman , o'nta emas yarim davlatimni beraman” degan so'zlaridan keyin, Unsinoy sekingina javob berdi “ agar siz meni butunlay ozod qilsangiz, bitta qabr nima, o'ntasiga sanchib kelaman pichoqni debdi. Bu so'zlar dodxohni asabiylashtirib, o'z quyishqonidan chiqarib yubordi va u shunday shart qo'ydi “ sen go'ristonga borib choy damlab kelsang , men seni ozod qilaman hozir senga bir taloq , choy damlab kelsang uch taloq “ degan so'zlaridan keyin Unsin go'ristonga yo'l oladi .

Taloq (arab tilida — qo'yib yubormoq, ajralmoq) — shariatga ko'ra nikohning bekor qilinishi. Er tomonidan shu so'zning aytilishi xotinni barcha xotinlik majburiyatidan to'la ozod qiladi. Bu holatda erning xotinga bergan mol-mulk (mahr)i xotinda qoladi, er xotinni muddati o'tguncha moddiy ta'minlab turishi kerak. Shariatda ikkinchi taloqdan keyin ham er-xotinni qaytadan yarashtirishga ruxsat etiladi. Uchinchi marta taloqdan keyin esa shariat bunga yo'l qo'ymaydi.



Abdulla Qahhor bu asarida mayda bo'laklarga ham juda noziklik bilan ishlov berib, o'zining qanchalik buyuk yozuvchi ekanligini tasvirlab ham bergan, bunga misol, Unsin qabristonga ketayotganida, atrof-muhitni tasvirlashini misol tariqasida keltirsak bo'ladi: "Osmonning chekasi sariq - kir uvadaga o'xshaydi. Shu'la qo'ynida past-baland uylar, shamolga egilayotgan, tebranayotgan daraxtlar qop-qora ko'rinadi. Pishqirayotgan shamol har xuruj qilganida Unsinni tentiratar, talay joyga surub tashlar edi. Unsin go'ristonga yetib borib o't qalashga tushadi, uninga hayolida har bir qabrdan unga o'liklar termulib turgandek bo'lar edi, Unsin o'ziga dalda berish maqsadida "O'likning joni yo'q" deb shaxdam-shaxdam qadam tashlab o't yoqdi. Choy damlagach ortga qaytar ekan hayolida qablardan inson kallalari qarab turganday bo'lar edi. Uni shunday qo'rquv bosgan edi-ki, u hatto orqasiga qaray olmas edi. Qabristondan chiqay deganda uning orqasiga nimadir yoki kimdir sakrab chiqib oladi bundan daxshatga tushgan Unsin o'zini yo'qotib qo'yadi. Oradan bir muddat o'tgandan keyin u o'ziga kelgandi uning orqasida maymun o'tirganini payqaydi. Bu oddiy maymun emas dodxohning maymuni edi. Unsinning shu darajada jaxli chiqdiki, u dodxohni la'natlay ketdi. Dodxoh shunday pastkash inson ediki hatto o'z maqsadi yo'lida bir insonning umri u uchun bir tangachalik ham qadri yo'q edi. Unsin uzun yo'l bo'ylab orqaga qaytar ekan, yo'l juda ham uzun, qo'lidagi choynak esa juda ham og'irdek tuyilar edi. U o'z manziliga yetib uy ichiga zo'rg'a kirib, qo'lidagi choyni sandalga qo'yadiyu xushidan ketadi, bu holatni ko'rgan dodxoh o'z ko'zlariga ishonmay o'zini eshikka uradi. Unsin o'ziga kelganda tepasida katta kundoshi Nodirmohbegim o'tirar bir ko'zi ko'kargan edi, buning sababi esa Unsin qabristonga ketganda uni dodxoh yaxshilab kaltaklagan edi. Unsinga mozorning loyidan suvga aralashtirib ichirdi, Unsin ancha yengil tortdi, ammo peshingacha yetmadi - joni uzildi. Shom qorong'isida uning jasadini qizil ko'rpaga o'rab aravaga solishdi. Shamol hamon guvullar, yaydoq daraxtlarning shoxida chiyillar, g'uvullar edi.

Darvozaning boshida paranji va qo'lida oq tuguncha bilan Nodirmohbegim chiqdi. U darvozaga yuzini o'girib cho'nqaydi, ikki qo'lini fotihaga ochib, bir nimalar dedi. Dodxohning o'zi bilan birga bu dargohni yerning qa'riga yuborganday ikkala mushtini uch marta



yerga qadadi; keyin „bu dargohni endi yelkamning chuquri ko'rsin" deganday bir harakat bilan keskin burilib aravaga chiqdi, marhumaning bosh tomoniga o'tirdi. Arava jo'nadi.

Ushbu hikoya Unsin ismli shaxsning qorong'u va qo'rquvli tajribalari orqali uning ichki dunyosidagi azoblarni, boshqalarning zulmiga qarshi kurashishdagi muvaffaqiyatsizligini tasvirlaydi. Hikoyada bir necha asosiy mavzular ko'rinadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu asar insonning ichki iztiroblari, tashqi dunyo bilan bo'lgan nizolari, va nihoyat o'limi orqali hayotning o'ta qorong'u va beparvo tomonlarini ochib beradi. O'lim Unsin uchun nafaqat yakun, balki boshqalarning zulmidan, maqsadga yetishda yuzaga kelgan asoratlardan qochish yo'li sifatida ko'rsatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Normatov U. Abdulla Qahorni anglash mashaqqati. Toshkent. „Universitet“, 1999.
2. Qo'chqorov R. Men bilan munozara qilsangiz. -T. Ma'naviyat nashr. 1999.
3. Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. — T.: „O'qituvchi“, 1999.

